



2-TOM, 5-SON

AGRAR SOHA TALABALARIDA IQTISODIY MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISH SAMARASI

Ergasheva Umida Asad qizi

Termiz qishloq xo'jaligi texnologiyalari innovatsion rivojlanish instituti talabasi

Резюме. В статье подчеркивается важность подготовки студентов агропромышленного комплекса к профессиональной деятельности. В образовательном процессе основное внимание уделяется механизмам развития экономической культуры. Обосновано, что развитие и повышение экономической культуры имеет важное значение в подготовке высококвалифицированных специалистов.

Ключевые слова: экономические знания, экономические способности, экономические навыки, экономическая культура, экономическое образование, экономическое образование, экономические идеи.

Resume. The article highlights the importance of training students in the agricultural sector for professional activities. In the educational process, the main attention is paid to the mechanisms of economic culture development. It is justified that the development and improvement of economic culture is important in the training of highly qualified specialists.

Key words: economic knowledge, economic ability, economic skills, economic culture, economic education, economic education, economic ideas.

Bugungi kunga kelib agrar sohada keng fundamental bilimlarga ega bo'lgan, tashabbuskor, ijodiy, mehnat bozori va texnologiyalarga nisbatan o'zgarib turadigan talablarga moslashadigan, jamoada ishlay oladigan mutaxassisni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Buning isboti sifatida Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi prezidenti v.b. sifatida imzolagan birinchi qonun hujjati O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risida Qonuni bo'ldi. Aynan ushbu Konun yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasi yoshlarni har tomonlama mukammal etib voyaga yetkazishda ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va qonuniy chora-tadbirlar tizimini nazarda tutadi [1, b. 2].

Zamonaviy mutaxassisdan iqtisodiyot, psixologiya, mehnatni tashkil qilish va rag'batlantirish borasida chuqur bilimlar, eng yangi texnologiyani egallash, istiqbol, bilimlarni uzliksiz kengaytirish va yangilash, kasbiy daraja o'sishiga ehtiyojni ko'ra olish qobiliyati, ishlab chiqarishda tarbiyachi va tashkilotchi bo'la olish qobiliyati, kamchiliklar,



2-TOM, 5-SON

befarqlikni bartaraf qila olishlik, ilg‘or va progressiv ishlarga intilish, intizomlilik, mas’uliyatlilik, tashkilotchilik talab qilinadi. Bular qatoriga kasbga fidokorona yondashish, kasbiy shaxsiy imkoniyatlarga mustaqil baho berish va qo’llash kabi qirralarning o’sib borishini kiritamiz.

Iqtisodiy madaniyatning tarbiyaviy vazifasi bilimlar yig‘indisining maslakga aylanishi, shu bilim va maslaklarning inson xatti - harakatlarida qo’llanilishidan iborat. Iqtisodiy tarbiyaning asl maqsadi bo‘lib bozor munosabatlari subyektining shaxsiy xislatlari tarbiyasi hisoblanadi. Ular orasida shaxsiy manfaatlarni jamoatmanfaatlari bilan biriktira olish qobiliyati va qo’llanilishi usullarini ajratamiz. Bu xislatlar bozor iqtisodiyotida shaxsiy yutuqqa erishishda birinchi o‘ringa chiqadi.

Iqtisodiy madaniyat hamda uning asosida iqtisodiy fikrlashning shakllanishi ta’lim va tarbiya jarayonida sodir bo‘ladi. Ta’lim orqali iqtisodiy nazariyalar, g‘oyalar, qarashlar, bilimlar o‘rganiladi, tarbiya jarayonida insonlarning iqtisodiy xislatlari va xulq-atvori me’yorlari shakllanadi.

Shaxs iqtisodiy madaniyati asosi – iqtisodiy ongdir. Yuqori ong, mas’uliyat va intizom hissi, jamoat talabalarining shaxs ehtiyojlariga aylanishi izchil tarbiyaviy jarayon natijasi bo‘lib qoladi.

Iqtisodiy fikrlash rivojlanishi talabalarning iqtisodiy tarbiyasi aniq vazifalarini aniqlaydi:

- iqtisodiy dunyoqarashning shakllanishi;
- iqtisodiy hayotda sodir bo‘ladigan jarayonlarni mos baholay olish qobiliyati;
- davlat siyosatini baholay olish qobiliyati;
- iqtisodiy samaradorligi nuqtayi nazaridan texnik qarorlarni asoslay olish qobiliyati;
- o‘z ishini to‘g‘ri tashkil qilish, o‘z turmushini to‘g‘ri tashqil qilish qobiliyati.

Amaliy mashg‘ulotlarda eng samarali ishni faollashtirish usullaridan biri bo‘lib kreativ o‘qitish metodlari hisoblanadi: ishbilarmonlik o‘yinlari, dasturiy-maqsadli va muammoli vazifalar, -aqliy hujum?, ular yordamida ishtirokchilarning o‘zi bilan berilgan yoki ishlab chiqilgan variantlarni almashtirish orqali turli vaziyatlarda boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi o‘xshatiladi.

Tayanch iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida shuni ta’kidlash muhimki, bozor xo‘jaligining o‘zi, mohiyatiga ko‘ra, noahloqiy bo‘la olmaydi, chunki u faqatgina umuman jamiyat uchun maksimal qulayliklarning yaratilishini ta’minlovchi ishlab chiqarish va taqsimlash yuqori mexanizmini bildiradi. Bunga asos bo‘lib raqobat va erkin bozorlar xizmat qiladi. Raqobat mehnat mahsuldarligi ortishiga sharoit yaratadi, erkin



2-TOM, 5-SON

bozorlar tovarlar tanqisligini bartaraf etishga imkon beradi, ikkala shu omillar birgalikda jamiyat farovonligini oshirishga imkon beradi. Bozor iqtisodiy doirasida ish ko‘rib, insonlar o‘z foydasiga intiladi, bunda shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradigan umumtan olingan etik poydevorga tayanadi. Shunday ahloqiy boshqarishning yo‘qligi davlat iqtisodiyot boshqaruvi kuchayishiga olib keladi, ya’ni bozor etika jihatidan yo‘naltirilmagan yerda yanada huquqiy boshqaruvni kuchaytirish zaruriyati yuzaga keladi va aksincha. Iqtisodiy sohada ahloqiy talablarni ajratish mumkin:

- eng yuqori mahsuldorlik va foydaga atrof muhitning buzilishi hisobiga erishilishi kerak emas;
- raqobat to‘g‘ri qoidalarga ko‘ra amalga oshirilishi kerak;
- mehnat orqali yaratilgan qulayliklar aholi qatlamlarining sinflarga ajralishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak;
- inson texnikaga emas, balki texnika insonga xizmat qilishi kerak. Iqtisodiy madaniyat shakllanishi samaradorligiga faqat ta’limning uzluksizligida erishiladi.

Iqtisodiy tayyorgarlikning uzluksizligini ikki tarafdan ko‘rib chiqish mumkin. Bir tarafdan – iqtisodiy jihat barcha fanlarni – gumanitar, umumilmiy, maxsus - o‘qitishda hisobga olinishi kerak, bu fanlararo bog‘liqlik asosida ta’milanadi. Boshqa tarafdan, iqtisodiy ta’lim va tarbiya butun o‘qitish davomida amalga oshirilishi kerak. Iloji boricha, Oliy o‘quv yurtida barcha o‘qituvchilar iqtisodiy madaniyatini oshirish maqsadida metodologik seminarlar tashkil qilinishi kerak.

Iqtisodiy ta’lim uzluksizligiga shuningdek talabalar bilan individual ishslash jarayonida ham erishiladi, uzluksizlik ularda mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tashkilotchilik, tejamkorlik, davlat mulki avvaylash, ilmiy mehnatni tashkil qilish,

bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy qobiliyat va ko‘nikmalarni o‘quv jarayoni va boshqa auditoriyadan tashqari ishda ishlab chiqishga imkon beradi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil qilishda iqtisodiy fanlar o‘qituvchisi o‘rni, o‘quv jarayonini samarali tashkil qila olishi qobiliyatining ahamiyati kata. Ma’ruzalarda iqtisodiyot

rivojlanishining o‘zarobog‘langan muammolariga talabalar e’tiborini jalb qilish muhim. Fikrlarning erkin almashinushi, erkinlik muhiti talabalar tomonidan iqtisodiy bilimlarning tushunilishini bir necha bor tezlashtiradi. Guruhlarda muammoli iqtisodiy masalalari bo‘yicha bahs va muzokaralarni tashkil qilish foydalidir. Shunday qilib, oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi talabalar iqtisodiy madaniyatini shakllantirish maqsadida ularga ta’sir qilish vosita va metodlarini tanlash katta imkoniyatiga ega.





2-TOM, 5-SON

Tarbiyada o‘qituvchi shaxsi katta ahamiyatga ega. Agar o‘qituvchi ijtimoiy faol, prinsipial va haqiqiy fuqaro bo‘lsa, agar uning fikr yuritishi botirlik va yangililik bilan farq qilsa, agar u iqtisodiy madaniyat egasi bo‘lsa, unda u bilan muloqotda bo‘lgan talabalarga ham hayotda o‘z o‘rnini tanlash yengilroq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Toshkent. sh., 2016 yil 14 sentyabr
2. Islom Karimov. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir.
– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2012yil. 143 b.
3. A. O‘lmasov, A. Voxobov. “Iqtisodiyot nazariyasi” – T.: «Sharq» 2014yil, 4-6 bet

